

О‘QUVCHILAR ORASIDA SUITSIDGA MOYILLIGI BO‘LGANLARINI ERTA ANIQLASH VA ULARNING RUHIY HOLATIGA TA’SIR ETUVCHI SALBIY OMILLARNI ANIQLAB, BARTARAF ETISH CHORALARINI KO‘RISH

Nurmatova Muhayyo Abdumalikovna
Toshkent viloyati Angren shahar 40-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilar orasida suitsidga moyillikni erta aniqlash va diagnostika ishlarini olib borish, shuningdek ushbu holatni erta aniqlab, chora ko‘rish masalalari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: Suitsid, o‘quvchi, ruhiy holat, chora-tadbir, metod.

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng yoshlar tarbiyasiga juda katta e‘tibor berib, ularni har tomonlama yetuk va barkamol o‘smir bo‘lib yetishiga katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi va mushtarakligi alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda pedagog-psixologlarning axborotlar oqimi uzluksiz kommunikatsiya tarmoqlaridan uzatilayotgan bir davrda xavfsizlikni ta‘minlash, xatarlar, salbiy oqibatlarining oldini olishni mas‘uliyatli vazifamiz. Shu boisdan o‘quvchi yoshlarimiz faol mehnat qilishi uchun avvalo ruhiy salomatlikni saqlash va mustahkamlash, ya‘ni nerv–psixik kasalliklarini oldini olishning mazmun- mohiyatini tushunib bormog‘i dardkor.

ADABIYOTLAR SHARHI

Suitsid (lot. sui caedere – o‘zini o‘ldirish) – maqsadli ravishda o‘zini hayotdan mahrum qilish, odatda, ixtiyoriy va mustaqil ravishda o‘z joniga qasd qilish. O‘z joniga qasd qilish holatlariga nisbatan jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida va turli madaniyatlarda o‘zgacha munosabat bo‘lganligi kuzatiladi. Bular:

- qasd qilish marosimi (rituali);
- odatiy sotsial statusni yo‘qotish;
- kasbiy muvafaqqiyatsizlik;
- kasalliklarga xos emotsiyalarga chidamsizlik va boshqa sabablar.

Suitsidga mukammal ta‘rifni fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym bergan. Uning talqini bo‘yicha, o‘smir tomonidan o‘zini kutayotgan natija haqida bila turib, sodir qilingan salbiy xatti-harakatning bevosita yoki bilvosita natijasi bo‘lmish har bir o‘lim holati o‘z joniga qasd qilishdir. (Emil Dyurkgeymning 1897 yilda nashr etilgan “Suiqasd” asari suitsidga oid adabiyotning klassik namunasi. Ushbu asarda olim mavjud statistik ma‘lumotlarga tayanib suiqasd nafaqat psixologik muammo, balki ijtimoiy ildizga ega xatar ekanligini isbotlagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ko'p hollarda yoshlarning o'z tashvishlariga ota-onalar va o'qituvchilar e'tiborini jalb qilish maqsadida jur'at qilish va bunday dahshatli yo'lni qo'pollik, befarqlik, insofsizlik va shafqatsizlikka qarshi isyon deb ko'rsatadilar. Bunday qadam tabiatan ta'sirchan o'smirlar tomonidan o'zini yolg'iz, keraksiz deb his qilish oqibatida turli stresslar ta'sirida amalga oshiriladi.

O'z joniga qasd qilish ayni tabiat gullab yashnagan davrda ya'ni bahorda ko'proq qayd etiladi. Psixologlar qalbdagi tushkun kayfiyat va tabiatning turfa ranglari o'rtasidagi kontrast, keskin farq bunga sabab bo'lishi mumkin, deb ko'rsatadilar. Amerikalik olim eng shafqatsiz oy deb aprelni ko'rsatadi. Suitsidning eng ko'p miqdori aynan aprel oyiga to'g'ri kelishi qayd etilgan.

Suitsidga sabab bo'luvchi asosiy ijtimoiy omillar:

- suitsidial tahdidlar ta'siriga tushish;
- oilada suitsid holati qayd etilganlar;
- autoagressiya;
- alkogolli ichimliklarni iste'mol qiluvchi o'smirlar (jami suitsidlarning 30 foiz);
- og'ir depressiyaga chalinganlar;
- xronik va letal oqibatli (tuzalishiga umid yo'q bo'lgan holatlarda) kasalliklar;
- og'ir yo'qotishlarni (o'z yaqinidan, yaxshi ko'rganidan mahrum bo'lish va boshidan kechirganlar);
- oiladagi turli muammolar (zo'ravonliklar, mojarolar, ajralishlar va o'smirlar suiqasdi deb ataladigan holat yoki tibbiyot tili bilan aytganda, jinsiy balog'at davridagi suitsid.

O'z joniga qasd qilish xavfining omillari quyidagilar hisoblanadi:

1. Ijtimoiy-demografik:

- bolalikdan otasizlik;
- haddan tashqari g'amxo'rlik, "oilaning erkasi" turidagi tarbiya;
- spirtli ichimliklar muhiti oilasida tarbiyalanish;

2. Biografik:

- uydan qochib ketish;
- o'qish va ish joyini tez-tez o'zgartirish;
- o'zini o'zi o'ldirgan do'stlar bo'lishi.

3. Tibbiy:

- somatik patologiya (ichki kasalliklar);
- serebro-organik patologiya (bosh miya kasalliklari);

4. Individual.

O'smirning aniq xarakteristikasi emas, o'smir tuzilmasining butunliligi darajasi: uning alohida belgilarining muvozanati saqlanganligi shuningdek, axloqiy-ma'naviy

qarashlar va tasavvurlarning mazmuni hal qiluvchi hisoblanadi. Xarakterli belgilari bir-biriga hamohang bo‘lmagan o‘smirlarda o‘ta yuqori xavf bo‘ladi, ularda xarakterning alohida belgilari bo‘rttirilgan holda rivojlanadi va yetarli bo‘lmagan ifodalarda ko‘rinadi. O‘rtacha ahamiyatdan nari borgan sari, xavf yuqori bo‘ladi. Shuningdek, joniga qasd qilish xavfini quyidagilar orttiradi:

- affektiv noturg‘unlik yoki hissiyotning tormozlanishi;
- o‘taketgan kirishimlilik yoki yetarli bo‘lmagan kirishimlilik;
- o‘ziga o‘ta yuqori yoki o‘ta past baho berish.

XULOSA VA MUNOZARA

Tamomlangan jonga qasd qilish haqida yoki tugallanmagan suiqaqd haqida gap ketishidan qat’iy nazar, ushlangan o‘smir hayotining o‘z joniga qasd qilishdan oldingi holatlariga oid bo‘lgan davri asosiy qiziqish uyg‘otadi. Ushbu davr (joniga qasd qilishdan avvalgi) o‘smirning alohida ruhiy holatini tavsiflovchi davr hisoblanadi va joniga qasd qilish harakatlarining ehtimolliligini oshirishga sabab bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Durkheim E. O‘z joniga qasd qilish: sotsiologik tadqiqot. Per. frantsuz tilidan M.: Ta‘lim, 2014. - 375 b.
2. Ambrumova A.G. Suidsidologik amaliyotda patologik bo‘lmagan vaziyatli reaksiyalar // Suidsidologiyaning ilmiy va tashkiliy muammolari. - M., 2013. - S. 40-52.
3. G‘.B.Shoumarov, U.D. Qodirov. Suidsid – ijtimoiy muammo sifatida // ”Psixologiya” jurnali, №3, 2015. – B.13-19
4. Рашидов, Д. (2022). ИТМОИЙ ЕНТИЙОЖМАНД ТОИФАГА МАНСУБ ШАХСЛАРНИ ТРАНСПОРТ КОРХОНАЛАРИДА ИШГА JOYЛАСHTIRISH UCHUN ИШ О ‘RINLARINI ZAXIRALASH. *Scienceweb academic papers collection*.